# XALQ DEPUTATLARI TO‘RTKO‘L TUMAN KENGASHINING
# Q A R O R I

2023 - yil 13 - yanvar VI-56-1-13-190-K/23 To‘rtko‘l tuman hokimligi

## To‘rtko‘l tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqlari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirsh to‘g‘risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli Prezdium qarori, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalari hamda O‘zbekiston Respublikasining "Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari To‘rtko‘l tumani Kengashi

**QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-dekabrdagi "Resurs soliqdari va mol-mulk solig‘ini yanada takomillashtirsh to‘g‘risida"gi PF-6121-sonli Farmoni, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesining 2023-yil 9-yanvar kungi 1062-sonli Prezdium qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 429 va 437-moddalariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari O‘zbekiston Respublikasining "Soliq kodeksi" bilan belgilanadigan soliq stavkalari asosida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun tuman va shaharlar kesimida, ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,5 dan 2,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalarini belgilash;

- tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlariga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi va viloyatlar xalq deputatlari Kengashlari

tomonidan belgilangan, Toshkent shahri bo‘yicha esa Soliq kodeksida belgilangan yer solig‘i stavkalariga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqi berilganligi;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i Qoraqolpog‘iston Respublikasida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasi 1 gektar uchun mutlaq o‘lchamda 31,0 mln. so‘m;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlardan tashqari) summasi 2022-yil uchun hisoblangan soliq summasining 1,3 baravaridan oshmasligi lozimligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i (bundan dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallangan yerlar mustasno) Qoraqolpog‘iston Respublikasida bazaviy soliq stavkasi 1 kv.m. uchun mutlaq o‘lchamda 286,0 so‘m mikdorida belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Hududlarni iqtisodiy rivojlanganlik darajasiga qarab, soliq yukini kelgusi yilda keskin ortib ketishini oldini olish maqsadida qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun;

- Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan yuridik shaxslar uchun 1-ilovaga muvofiq kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilansin;

- Soliq kodeksida belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan jismoniy shaxslar uchun 2-ilovaga muvofiq kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlar belgilansin;

- Xalq deputatlari tuman Kengashi mazkur qarorning 1 va 2-ilovalarida belgilangan soliq stavkasiga nisbatan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun ularning hududlarida joylashgan daha, massiv, mahalla, ko‘cha kesimida 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni kiritish huquqiga ega ekanligi;

- Bunda, keyingi yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozi doirasidan kelib chiqqan holda oshiruvchi yoki kamaytiruvchi koeffitsient qo‘llash, mahalliy budjet daromadlarini oshirish maqsadida faqatgina oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llamaslik belgilab qo‘yilsin.

3. Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman Kengashining 2022-yil 21-aprel kungi

“To‘rtko‘l tumani bo‘yicha qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar uchun soliq stavkalariga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash to‘g‘risida”gi VI-44-73-13-190-K/22-sonli qarori ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari (M.Bekchanov)ga tumanda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan egallangan yer uchastkalariga soliq stavkalarining to‘g‘ri qo‘llanilishi bo‘yicha nazorat o‘rnatish vazifasi yuklatilsin.

5. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (A.Abdalov)ga xalq deputatlari tuman Kengashi tomonidan belgilangan soliq stavkalari bo‘yicha yer solig‘i to‘lovchilarini o‘z vaqtida ogohlantirish va soliqlarni undirilishini ta’minlash vazifasi topshirilsin.

6. Mazkur qarorning bajarilishini nazoratga olish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari M.Bekchanov va tuman davlat soliq inspeksiyasi boshlig‘i A.Abdalovlar zimmasiga yuklatilsin.

7. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari M.Bekchanovaga mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirish va ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish vazifasi yuklansin.

8. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi** **R.Shamuratov**

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-56-1-13-190-K/23-son qaroriga
1-ilova

# To‘rtko‘l tumanida qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutlaq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari

***ming.so‘mda***

| № | Hududlar nomi | Koeffitsent (0,7 dan 3,0 gacha) | 2023-yil uchun yer solig‘i stavkasi (ming.so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1. | Anhorli MFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 2. | Atauba OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 3. | Beruniy MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 4. | Bog‘yop MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 5. | G‘alaba MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 6. | Guliston MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 7. | Do‘stlik MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 8. | Yoshlik MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 9. | Jayhun MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 10. | Ibn-Sino MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 11. | Istiqlol MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 12. | Kaltaminor OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 13. | Ko‘kcha OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 14. | Qumbosgan OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 15. | Ko‘na-To‘rtko‘l OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 16. | Markazobod MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 17. | Mash’al MFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 18. | Mustaqillik MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 19. | Navoiy MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 20. | Navro‘z MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 21. | Oqboshli OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 22. | Oqqamish OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 23. | Otayurt OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 24. | Paxtaobod OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 25. | Paxtachi OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 26. | Toshkent MFY | 0,9 | 22 599,0 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 27. | Tinchlik MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 28. | Tozabog‘yop OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 29. | Turkiston MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 30. | To‘rtko‘l MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 31. | O‘zbekiston MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 32. | O‘zbekiston OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 33. | Ullubog‘ OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 34. | Shodlik MFY | 0,9 | 22 599,0 |
| 35. | Sho‘raxon OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 36. | Yonboshqal’a OFY | 0,8 | 20 088,0 |
| 37. | Yangiobod MFY | 0,9 | 22 599,0 |

*Qo‘shimcha: Xalq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan yuridik shaxslar uchun yer solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesmida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.*

Xalq deputatlari To‘rtko‘l tuman
Kengashining
2023 yil 13 yanvardagi
VI-56-1-13-190-K/23-son qaroriga
2-ilova

**To‘rtko‘l tumanida Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlari**

***so‘mda***

| № | Hududlar nomi | Koeffitsent (0,7 dan -3,0 gacha) | 2023-yiluchun yer solig‘i stavkasi (so‘mda) |
|---|---|---|---|
| 1. | Anhorli MFY | 0,8 | 167,02 |
| 2. | Atauba OFY | 0,7 | 146,15 |
| 3. | Beruniy MFY | 0,95 | 198,34 |
| 4. | Bog‘yop MFY | 0,95 | 198,34 |
| 5. | G‘alaba MFY | 0,95 | 198,34 |
| 6. | Guliston MFY | 0,95 | 198,34 |
| 7 | Do‘stlik MFY | 0,95 | 198,34 |
| 8. | Yoshlik MFY | 0,95 | 198,34 |
| 9. | Jayhun MFY | 0,95 | 198,34 |
| 10. | Ibn-Sino MFY | 0,95 | 198,34 |
| 11. | Istiqlol MFY | 0,95 | 198,34 |
| 12. | Kaltaminor OFY | 0,7 | 146,15 |
| 13. | Ko‘kcha OFY | 0,7 | 146,15 |
| 14. | Qumbosgan OFY | 0,7 | 146,15 |
| 15. | Ko‘na-To‘rtko‘l OFY | 0,8 | 167,02 |
| 16. | Markazobod MFY | 0,95 | 198,34 |
| 17. | Mash’al MFY | 0,75 | 156,59 |
| 18. | Mustakillik MFY | 0,95 | 198,34 |
| 19. | Navoiy MFY | 0,95 | 198,34 |
| 20. | Navro‘z MFY | 0,95 | 198,34 |
| 21. | Oqboshli OFY | 0,7 | 146,15 |
| 22. | Oqqamish OFY | 0,7 | 146,15 |
| 23. | Otayurt OFY | 0,7 | 146,15 |
| 24. | Paxtaobod OFY | 0,7 | 146,15 |
| 25. | Paxtachi OFY | 0,8 | 167,02 |
| 26. | Toshkent MFY | 0,95 | 198,34 |
| 27. | Tinchlik MFY | 0,95 | 198,34 |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 28. | Tozabog‘yop OFY | 0,75 | 156,59 |
| 29. | Turkiston MFY | 0,95 | 198,34 |
| 30. | To‘rtko‘l MFY | 0,95 | 198,34 |
| 31. | O‘zbekiston MFY | 0,95 | 198,34 |
| 32. | O‘zbekiston OFY | 0,75 | 156,59 |
| 33. | Ullubog‘ OFY | 0,8 | 167,02 |
| 34. | Shodlik MFY | 0,95 | 198,34 |
| 35. | Sho‘raxon OFY | 0,75 | 156,59 |
| 36. | Yonboshkal’a OFY | 0,7 | 146,15 |
| 37. | Yangiobod MFY | 0,95 | 198,34 |

***Qo‘shimcha: Xalq deputatlari shahar hamda tumanlardagi Kengashlari tomonidan jismoniy shaxslar uchun yer solig‘i stavkalarini mahalla fuqarolar yig‘inlari kesmida tuman (shahar) markazlari uzoq-yaqinligiga qarab 0,7-3,0 kamaytiruvchi yoki ko‘paytiruvchi koeffitsientlarni belgilash huquqiga ega.***